O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-AVGUST***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-avgust oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-avgust oylarida shahar korxonalari tomonidan 66,2 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,9 %)ni  hamda ishlab chiqarish hajmi 53,5 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 17,3 % ga o’sishi kuzatildi.  Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 23,1 % ga o‘sishi hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 10,3 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 13,8 % ga, pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,5 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,4 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-avgust oylarida, % da)*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Shag‘al**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 432,7 | 434,9 | 2,2 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 23 837,8 | 23 727,2 | -110,6 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 504,5 | 485,3 | -19,2 |
| **Chaqiq tosh** *t.* | 699 517,1 | 490 326,6 | -209 190,5 |
| **Shag’al** *t.* | - | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,5 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,9 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-avgust oylarida, % da)



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 8,1 % ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 11,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 20,5 % (18,8 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 29,9 % (32,2 %) va quyi texnologiyalisi – 41,5 % (37,3 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,5 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 12,5 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 139,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,8 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,6 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 134,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi –

5,4 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati**

2022- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9410,6 tonna makaron va shunga o’xshash un mahsulotlari ( 28,7 % ga oshgan), 53,5 ming tonna kunjara va qattiq chiqindilar (74,1 % ga oshgan),
1 366,3 mln dona tamaki mahsulotlari (19,4 %) hamda 11,6 ming tonna margarin va yormalar (2,7 % ga oshgan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Margarin va yormalar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**




**Tamaki mahsulotlari**




**Paxta kalavasi**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming tonna.* | 37,9 | 39,9 | 1,9 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 8,3 | 7,7 | -0,6 |
| **Margarin va yormalar** *ming tonna.* | 11,3 | 11,6 | 0,3 |
| **Pivo –** *mln litr* | 55,1 | 57,5 | 2,4 |
| **Traktorlar -** *dona* | 173,0 | 114,0 | -59,0 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar -** *ming dona* | 350,1 | 491,7 | 141,6 |
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar,** t. | 11537,0 | 10704,0 | -833,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 1144,6 | 1366,3 | 221,7 |

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-avgust oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 114 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 65,9 % ga kamaygan.

## Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,
*yanvar-avgust oylarida*







## Toshkent shaharda yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati
*yanvar-avgust oylarida, dona*





## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-avgust)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 13,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 48,8 % ga ko'paygan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 15,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 139,8 % va ishlab chiqarish hajmi 8280,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-avgust oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 21,7 % ga ko'paygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,3 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 2345,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-avgust oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 6498,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-avgust oylarida)*






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 27,5 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 192,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6896,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-avgust oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 122,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,3 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3629,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-avgust oylarida)*






2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 103,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 780,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-avgust oylarida)*

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 4,0 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 1757,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI
% da




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-avgust oylarida)*

FHI
% da







2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 51,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 149,7 martaga ko’paygan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 241,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-avgust oylarida)*









2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 133,0 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 2256,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-avgust oylarida)*

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni, fizik hajm indeksi 111,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2054,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.








## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-avgust oylarida*

trln. so‘m







FHI *% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,4 % ga ko‘payganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-avgust oylarida, % da)*

2021- y.







2022- y.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 221,1 | 290,6 | 69,5 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 8487,2 | 7979,1 | -508,1 |
| **Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar,** *mln so 'm.* | 498,4 | 555,7 | 57,3 |

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-avgust oylarida*

trln. so'm







FHI *% da*

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,5 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-avgust oylarida, % da)*

2021- y.







2022- y.

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar,** *mlrd.so'm* | 59,4 | 108,7 | 49,3 |
| **(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 285,3 | 220,4 | -64,9 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm** | 126,8 | 179,4 | 52,7 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 22,8 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 41,5 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 83,0 % ga o’shish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 28,9 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 127,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,7 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,6 % (2021-yil yanvar-avgust oylarida 5,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib 16,2 % ni, shuningdek, Sirg’ali tumani 14,0 % ni, Bektemir tumani 13,9 % ni hamda Chilonzor tumani 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir (181,5 %), Yunusobod (174,8 %), Yangihayot (158,2 %),Shayxontoxur (138,1 %), Yakkasaroy  (135,3 %), Chilonzor

(129,4 %)  tumanlarida hamda Sirg’ali tumanida (128,1 %) qayd etildi.

**<u>Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>**

*2022-yilning yanvar-avgust oylarida*

| | Hudud | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|---|
|  | **Toshkent shahri** | **28 944,5** | **100** | **127,9** |
|  | **Uchtepa** | **2303,5** | **8,0** | **118,8** |
|  | **Bektemir** | **4028,8** | **13,9** | **181,5** |
|  | **Yunusobod** | **1553,0** | **5,4** | **174,8** |
|  | **Mirzo Ulug’bek** | **1362,9** | **4,7** | **130,4** |
|  | **Mirobod** | **1671,8** | **5,8** | **124,6** |
|  | **Shayxontoxur** | **1008,1** | **3,5** | **138,1** |
|  | **Olmazor** | **2242,2** | **7,7** | **115,7** |
|  | **Sirg’ali** | **4060,4** | **14,0** | **128,1** |
|  | **Yakkasaroy** | **1528,6** | **5,3** | **135,3** |
|  | **Yashnobod** | **4685,5** | **16,2** | **93,7** |
|  | **Yangihayot** | **1760,7** | **6,1** | **158,2** |
|  | **Chilonzor** | **2739,0** | **9,5** | **129,4** |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 19,7 % shuningdek, Chilonzor 11,8 %, Uchtepa tumani 10,7 % ni, Mirobod tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-avgust oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 15 699,9 | 100 | 122,2 |
| Uchtepa | 1680,5 | 10,7 | 115,8 |
| Bektemir | 528,1 | 3,4 | 143,4 |
| Yunusobod | 928,9 | 5,9 | 219,1 |
| Mirzo Ulug’bek | 1061,9 | 6,8 | 134,5 |
| Mirobod | 1468,6 | 9,4 | 127,3 |
| Shayxontoxur | 812,8 | 5,2 | 156,0 |
| Olmazor | 1003,9 | 6,4 | 114,6 |
| Sirg’ali | 1182,6 | 7,5 | 130,6 |
| Yakkasaroy | 924,0 | 5,9 | 116,9 |
| Yashnobod | 3087,6 | 19,7 | 91,0 |
| Yangihayot | 1173,9 | 7,5 | 147,6 |
| Chilonzor | 1847,1 | 11,8 | 134,2 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to‘g‘ri kelib 28,7 % ni, shuningdek, Sirg’ali tumani 23,1 % ni, Olmazor tumani esa 8,7 % ni tashkil etdi.

## <u>Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>

*2022- yilning yanvar-avgust oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **12 195,6** | **100** | **142,1** |
| **Uchtepa** | **623,1** | **5,1** | **127,7** |
| **Bektemir** | **3500,7** | **28,7** | **189,2** |
| **Yunusobod** | **556,8** | **4,6** | **144,5** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **301,0** | **2,5** | **117,6** |
| **Mirobod** | **203,2** | **1,7** | **107,9** |
| **Shayxontoxur** | **150,3** | **1,2** | **94,2** |
| **Olmazor** | **1238,3** | **10,2** | **116,6** |
| **Sirg’ali** | **2811,7** | **23,1** | **128,5** |
| **Yakkasaroy** | **604,6** | **5,0** | **178,2** |
| **Yashnobod** | **727,2** | **6,0** | **118,6** |
| **Yangihayot** | **586,8** | **4,8** | **184,8** |
| **Chilonzor** | **891,8** | **7,3** | **121,6** |

# Toshkent shahri hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-avgust oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 66 160,0 | 100,0 | 107,9 |
| Uchtepa | 3719,2 | 35,6 | 98,6 |
| Bektemir | 5987,7 | 9,1 | 109,8 |
| Yunusobod | 3127,9 | 4,7 | 112,6 |
| Mirzo Ulug’bek | 3458,9 | 5,2 | 100,2 |
| Mirobod | 4837,9 | 7,3 | 102,6 |
| Shayxontoxur | 3961,3 | 6,0 | 103,6 |
| Olmazor | 3870,5 | 5,9 | 100,4 |
| Sirg’ali | 7794,5 | 11,8 | 111,7 |
| Yakkasaroy | 4860,2 | 7,3 | 116,6 |
| Yashnobod | 15694,1 | 23,7 | 97,8 |
| Yangihayot | 2851,6 | 4,3 | 106,2 |
| Chilonzor | 5996,2 | 9,1 | 120,6 |

## <u>Toshkent shahri  hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati</u> *% da*




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir (181,5 %), Yunusobod (174,8 %), Yangihayot (158,2 %) hamda Shayxontohur tumanlarida (138,1 %) qayd etildi.

**Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 23,7 % ) hamda Sirg’ali (11,8 %), Bektemir (9,1 %), Chilonzor (9,1 %) va Mirobod (7,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangihayot tumani (4,3 %), Yunusobod (4,7 %) hamda Uchtepa (5,6 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (113792,4 ming so‘m), Yashnobod (55867,4 ming so‘m) hamda Sirg’ali tumanida (51862,3 ming so‘m) shaharda o‘rtacha daraja ko‘rsatkichidan (6734,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shahar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so‘mdan yuqori ko’rsatkich Bektemir tumanida – 70513,4 ming so‘mni, Sirg’ali tumanida – 30394,1 ming so‘mni, Yashnobod tumanida – 19160,1 ming so‘mni, Mirobod tumanida –9343,9 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-avgust oylarida, ming so‘m*

| | *Sanoat mahsulotlari* | *Iste’mol mahsulotlari* |
|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **22 924,9** | **10 029,5** |
| **Uchtepa** | **12925,0** | **8005,3** |
| **Bektemir** | **113792,4** | **76565,1** |
| **Yunusobod** | **8665,3** | **4302,2** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **10936,1** | **4308,9** |
| **Mirobod** | **32942,3** | **11383,7** |
| **Shayxontohur** | **11128,6** | **2832,1** |
| **Olmazor** | **9982,0** | **5782,6** |
| **Sirg’ali** | **51862,3** | **27017,1** |
| **Yakkasaroy** | **38962,7** | **12254,4** |
| **Yashnobod** | **55867,4** | **16679,4** |
| **Yangihayot** | **18542,3** | **11448,9** |
| **Chilonzor** | **22372,6** | **10219,3** |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*2022- yilning yanvar-avgust oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 20,5 trln. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 68,8%), Yunusobod (49,0 %),Yangihayot (44,4 %) hamda Chilonzor (41,3 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Yashnobod (15,8 %), Mirobod (21,1 %), Uchtepa (25,0 %) hamda Shayxontohur (26,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

<u>**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**</u>

*(2022- yil 1- sentabr  holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 12,8 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,1 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,5 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,7 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,7 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Mirzo Ulug’bek tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-avgust oylarida shahardada 1063 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 133 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 12,5 %) Olmazor tumanida, 118 tasi (11,1 %) Yunusobod tumanida, 109 tasi (10,3 %) Uchtepa tumanida, 101 tasi (9,5 %) Chilonzor tumanida, 98 tasi (9,2 %) Mirzo Ulug’bek tumanida hamda 97 tasi (9,1 %) Yashnobod  tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 103 ta), Chilonzor (1 991 ta), Uchtepa (1 885 ta), Yunusobod (1 753 ta) hamda Shayxontohur (1 429 ) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shahrida eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-sentabr holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (579 ta), Yangihayot (622 ta), Mirobod (951 ta), Sirg’ali (1030 ta), Yakkasaroy (1 249 ta), Yashnobod (1 404 ta), Mirzo Ulug’bek (1423),Shayxontohur (1429), Yunusobod (1753), Uchtepa (1885) tumanlarida qayd etildi.


**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*